

**O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI HUZURIDAGI
TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI PhD.02/09.07.2020. Tar.120.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AXMEDJONOV NORPULAT AKRAMOVICH

**O‘ZBEKISTONDA XX ASR O‘RTALARI VA XXI ASR BOSHLARIDA
MADANIY MEROS OBYEKTлари VA MUZEYLAR TARIXI
(Jizzax viloyati misolida)**

**17.00.06 – Muzeyshunoslik: tarixiy madaniy obyektlarni konservatsiya qilish,
ta‘mirlash va saqlash (tarix)**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT-2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Axmedjonov Norpulat Akramovich

О‘zbekistonda XX asr o‘rtalari va XXI asr boshlarida madaniy meros obyektlari va muzeylar tarixi (Jizzax viloyati misolida) 3

Ахмеджанов Норпулат Акрамович

История объектов культурного наследия и музеев в Узбекистане середины XX века и начала XXI веков (на примере Джизакской области) 25

Akhmedjonov Norpulat Akramovich

The history of cultural heritage sites and museums in Uzbekistan in the middle of the 20th century and the beginning of the 21st centuries (on the example of the Jizzakh region) 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 51

**O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI HUZURIDAGI
TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI PhD.02/09.07.2020. Tar.120.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AXMEDJONOV NORPULAT AKRAMOVICH

**O‘ZBEKISTONDA XX ASR O‘RTALARI VA XXI ASR BOSHLARIDA
MADANIY MEROS OBYEKTLLARI VA MUZEYLAR TARIXI
(Jizzax viloyati misolida)**

**17.00.06 – Muzeyshunoslik: tarixiy madaniy obyektlarni konservatsiya qilish,
ta‘mirlash va saqlash (tarix)**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT-2023

Falsafa doktori (PhD dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Tar1282. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://www.history-museum.uz>) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismailov Alisher Fayziyevich
tarix fanlari doktori (DSc), kat.i.x

Rasmiy opponentlar:

Xoliqova Rahbar Ergashevna
tarix fanlari doktori, professor

Muxamedova Munisa Sobirovna
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.02/09.07.2020.Tag. 120.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil «___» ___soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100029, Toshkent shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 3-uy. O'zbekiston tarixi davlat muzeyining kichik majlislar zali. Tel.: (99871) 239-10-83; faks: (99871) 239-10-83, e-mail: info-historymuseum@akademy.uz O'zbekiston tarixi davlat muzeyi).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston tarixi davlat muzeyining kutubxonasida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100029, Toshkent shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 3-uy).

Dissertatsiyasi avtoreferati 2023-yil «___» ___kuni tarqatildi.
(2023-yil «___» ___dagi ___ - raqamli ryestr bayonnomasi)

J.X. Ismailova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

D.O. Karimova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash Ilmiy kotibi, t.f.b.f.d.,kat.i.x

B.V. Hasanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, t.f.d. professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoning rivojlangan davlatlarida bugungi kunda tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilishning turli modellari, usullari, xalqaro me'yorlari va qonunlari ishlab chiqilganiga qaramay, madaniy merosni saqlash, asrash, ta'mirlash va undan oqilona foydalanish o'z dolzarbligini oshirmoqda. Madaniy meros obyektlari sayyohlik sanoatining muhim elementi sifatida hamda davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi va rivojlanishida asosiy o'rin egallamoqda. Tarixiy-madaniy merosning ilmiy axborot mazmuni, uning inson hayotining bir sohasi sifatidagi tarixiy ahamiyatini oshirish va bu merosga hurmat hissini oshirish kabi masalalar dolzarb masalaga aylandi.

Jahonning yirik muzeylari, ilmiy tadqiqot markazlari va oliy o'quv yurtlarida madaniy meros obyektlari va muzeylar tarixiga oid masalalarni har tomonlama o'rganish ustivor ilmiy yo'nalishlardan biri sanalmoqda. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish, yirik arxeologik yodgorliklarda keng ko'lamli tadqiqotlarni olib borish, muzeylardagi qadimiy tariximiz va boy madaniyatimizni xalqimizga va jahon hamjamiyatiga targ'ib qilish, madaniy meros hamda muzeylar tarixi, shakllanishi, faoliyati, muzey kolleksiyalarini saqlash, ta'mirlash kabi masalalar olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar xarakterini belgilamoqda.

Yurtimizda so'nggi-yillarda moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, jumladan moddiy madaniy meros sohasida davlat nazoratini amalga oshirish, ulardan oqilona foydalanish, moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlarida asrashga doir ishlarni amalga oshirish, shu bilan birga muzeylar sohasida muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish va rivojlantirishga doir ishlarni amalga oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish» deb nomlangan IV ustivor yo'nalishida ham muhim vazifalar belgilab berildi¹. Bu esa moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, muzeylar faoliyatini ilmiy jihatdan o'rganish, ulardan oqilona foydalanish orqali bu sohasidagi davlat nazoratini tubdan takomillashtirishda asosiy omil sanaladi. Jahon hamjamiyatida O'zbekistan Respublikasining ijobiy imidjini shakllantirish va mustahkamlash, respublikaning muzey to'plamlaridagi boy tarixiy va madaniy merosini keng targ'ib qilish, san'at, madaniyat va tarix sohasidagi barcha muzeylar faoliyatini ilmiy-tadqiqot va metodik jihatdan muvofiqlashtirish, ixtisoslashtirilgan ilmiy kengashlar va ilmiy-metodik kengashlar tashkil etish hamda moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781-son «O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2018-yil 22-yanvardagi PF-5308-son «2017-2021-yillarda

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash-yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida»gi Farmoni, 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son «Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2018-yil 19-dekabrda PQ-4068-son «Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2020-yil 26-maydagi PQ-4730-son «O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2022-yil 27-maydagi PQ-261-son «Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda 975-son «2017 - 2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda madaniy meros obyektlari va muzeylar tarixi masalalari qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Jumladan, Jizzax vohasining tarixiy-madaniy yodgorliklarini asrab-avaylash va muzeylashtirish masalalariga oid bir qancha ilmiy tadqiqotlar, va arxeologik ekspeditsiya materiallari mavjud bo‘lib, ular mavzuni o‘rganish va yechimini topishda yaqindan yordam beradi. Jumladan, Ya.G‘.G‘ulomov, A. Muxamedjanov, X.Muxamedov, M.Aminjanova, S. R. Raximov, A.Kabirov, S.Anarbayev, E. B. Qodirov, A.Razzoqova, Sh.S.Toshxo‘jayev, N.B.Nemseva, G.YA.Dresvyanskaya, U.A.Alimov, R.A.Badaxov, L.M.Sverchkov, O. A.Papaxristu, O.Mamurov, F.Maqsudov, R.H.Murodaliyev, A.N.Xolmatovlar² arxeologik ekspeditsiyalar olib borgan bo‘lsa, ekspeditsiyadan tashqari ilmiy izlanishlarida A. E. Berdimurodov³

² Ўз Р ФА Академик Я.Фулумов номли Археология институти архиви. 6-фонд, 1-руйхат, 7-ийғмажилд. 1-31-варақлар. // Сверчков Л.М. Крепость мык. Ташкент, 2014. 26 с. // Сверчков Л.М. Археологические памятники горного замина. Ташкент, 2013. 48 с. // Грицина А.А. Эски Заамин / Древний Заамин. Под редакцией Н.Ш. Умарова. Ташкент, 1994. // Грицина А.А. Археологические исследования в бассейне Пшагарсая . ИМКУ. Вып. 36. Ташкент, 2008. // Грицина А.А., Сверчков Л.М. Археологические исследования в Сырдарьинской области. ИМКУ. 1990. Вып. 23. // Madaniy meros agentligi joriy arxivi (1991-2020 йилларда Жиззахда олиб борилган археология тадқиқотлар бўйича ҳисоботлар асосидаги жадвал). - Б.1// Madaniy meros agentligi joriy arxivi (Отчет Узбекское-Американских археологический экспедиции о полевых исследованиях на памятнике Ташбулак в Джизакской области в 2015 году (проект «Археологические изучение Караханидов А И К»), 2016). -20 с. // Anarboev S. Tuyatortar kanali qurilish tarixi. // Arxeologlar hikoуa qiladi. -Toshkent, 1974, - В. 51-55.

³ Бердимуродов А. Э. Раннесредневековые археологические памятники Джизакского оазиса (Северо-западная Уструшана V–X в. н. э.). Автореф. дис.... канд. ист. наук. – М., 1985.

Jizzax vohasining ilk oʻrta asr arxeologik yodgorliklari tarixiga, A. A. Gritsina⁴ miloddan avvalgi I-ming-yillik oʻrtalaridan - milodiy XIII asr boshlarigacha Shimoliy Ustrushona tarixiga, M.X. Pardayev⁵ ilk oʻrta asrlarda shimoli-gʻarbiy Ustrushona tarixiga, A.X. Pardayev⁶ Oʻrta Osiyo xonliklari davrida Jizzax bekligi tarixiga, F.E. Toshboyev⁷ Ustrushona chorvadorlarining antik davr madaniyati tarixiga, J.I.Gʻofurov⁸ Ustrushonaning ilk oʻrta asr qishloq makonlari tarixiga hamda F.Sh. Aqchayev⁹ Jizzax vohasi muqaddas qadamjolari va ziyoratgohlariga oid tadqiqotlar olib borgan.

Oʻzbekistonda XX asr oʻrtalari va XXI asr boshlarida madaniy meros obyektlari va muzeylar masalalari boʻyicha Oʻzbekistonda moddiy madaniy merosni oʻrganish, targʻib etish va saqlash masalalari tadqiqiga eʼtibor qaratilgan boʻlib, moddiy madaniy merosini oʻrganish, saqlash va muzeylashtirish masalalarining ayrim jihatlari N.Sodiqova, J.X. Ismailova, D.A. Qurbonova, R.V.Almeyer, D.T.Kuryazova, M.S.Muxamedova, J.Z.Axmedovlarning ilmiy risolalarida yoritilgan¹⁰. R.V.Almeyer, D.A.Kurbonova, D.T.Kuryazova, A.F.Ismailov, R.B.Abriyev, M.S.Muxamedova, M.Sh.Mansurov, M.F.Rasulov, J.Z.Axmedov, G.R.Orifjonova, V.S.Fayziyevalarning tadqiqotlari tarixiy-madaniy yodgorliklar va muzeylar muammolariga bagʻishlangan¹¹. Taʼkidlab oʻtilgan

⁴ Грицина А. А. Северная Уструшана в середине I тысячелетие до н. э. – начало XIII вв н. э. (арх. -топ. исс.): Автореф. дис.... канд. ист. наук. – Т., 1990.

⁵ Пардаев М. Х. Северо-западная Уструшана в эпоху раннего средневековья (по материалам нижнего течения Сангзара): Автореф. дис.... канд. ист. наук. – Т., 1995.

⁶ Пардаев А. Х. Жиззах беклиги – Ўрта Осиё хонликлари даврида (XVI асрдан XIX асрнинг 60-йилларигача). Т. ф. н. олиш учун дисс. афтореферати. – Т.: 2004.

⁷ Тошбоев Ф.Э. Уструшона чорвадорларининг антик давр маданияти. тар. фан. фал. док. (PhD) учун ёзилган дисс. автореферати. Самарканд, 2017.

⁸ Гофуров Ж.И. Уструшонанинг ilk ўрта аср қишлоқ маконлари (ёзма ва археологик манбалар асосида)// Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.Самарканд, 2019.

⁹ Ақчаев Ф.Ш. Жиззах воҳаси муқаддас қадамжолари ва зиёратгоҳлари. тар. фан. фал. док. (PhD) учун ёзилган дисс. – Тошкент, 2020.

¹⁰ Содикова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. – Тошкент: Фан, 1981.; Исмаилова Ж.Х., Мухамедова М.С. Замонавий жаҳон музейшунослиги. – Тошкент, 2013. – 305 б.; Исмаилова Ж.Х., Мухамедова М.С. Музей предметлари атрибуцияси ва экспертизаси. – Тошкент, 2013. – 224 б.; Курбонова Д. А. Дунё музейларидаги меросимиз. – Тошкент: LESSON PRESS, 2017. – 164 б. Альмеев Р. В. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития. – Ташкент: Гафур Гулям. 2007. – 268 с. Курязова Д.Т. Ўзбекистонда музей иши тарихи. – Тошкент, Sanʼat. 2010. – 154 б.; Axmedov J.Z. Fargʻona vodiysidagi tarixiy- madaniy yodgorliklarni muzeylashtirish (XIX–XXI asrlar) / monografiya – Toshkent.: «Fan ziyosi» nashriyoti, 2022. 132 bet.

¹¹ Алмеев Р.В. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития (1991-2000 гг.) Автореферат дис... д-ра. ист. наук – Ташкент, 2012. С. 50; Курбонова Д.А. Жаҳоннинг йирик музейларида Ўзбекистонга оид коллекцияларнинг шаклланиши ва уларни комплектлаш тамойиллари. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2020. 74 б; Курязова Д. Т. Ўзбекистон моддий маданий меросини ўрганиш, сақлаш ва музейлаштиришнинг назарий-методологик асослари. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2021. 79 б; Ismailov A.F. Oʻzbekistonning intellektual rivoji tarixi va fan muzeylarini shakllantirish tendensiyalari (Oʻzbekiston fanlar akademiyasi misolida). Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2023. 70 б; Абриев Р.Б. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда тарихий-меморий обидаларни таъмирлаш ва қайта тиклаш тарихи (Зарафшон воҳаси мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2017. 54 б.; Мухамедова М.С. Ўзбекистон тарихий шаҳарларидаги музейлаштирилган объектларда туризмнинг шаклланиши ва ривожланиш истикболлари (XX аср II ярми - XXI аср бошлари). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2020. 50-б; Мансуров М.Ш. Фарғона водийсида туризмнинг ривожланиш жараёнлари ва ҳолати (1980-2018 й). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2020. 50 б; Расулов М.Р. Ўзбекистонда тарихий ва маданий ёдгорликларнинг аҳоли ҳамда уларга бўлган муносабатнинг трансформацияси (1980-2019 йй). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2020. 52 б. Ахмедов

ma'lumotlar O'zbekistonda XX asr o'rtalari va XXI asr boshlarida madaniy meros obyektlari va muzeylar tarixi (Jizzax viloyati misolida) alohida tadqiqotning yo'qligini tasdiqlaydi. Mavzuning ayrim tomonlarini aks ettirgan tadqiqotlarda ko'proq sohaning ma'lum bir tomoni o'rganilgan. Aynan, mavzu yuzasidan to'liq ma'lumot beradigan tadqiqot amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq «O'zbekiston tarixini o'rganish va malakali kadrlar tayyorlashda fan va ta'lim integratsiyasi» mavzusidagi ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda XX asr o'rtalari va XXI asr boshlarida (2022) madaniy meros obyektlarini saqlash va muzeylar tarixini Jizzax viloyati misolida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

XX asrning 50-80-yillarida Jizzax viloyati tarixiy-madaniy yodgorliklarining o'rganilishi tarixini muzeyshunoslik jihatidan ochib berish;

Mustaqillik-yillarida Jizzax viloyati tarixiy-madaniy yodgorliklarining o'rganilishini muzeyshunoslik jihatidan Madaniy meros agentligi materiallari asosida yoritib berish;

Jizzax viloyatining madaniy meros obyektlarini muzeylashtirishda jahonda qo'llangan nazariy va amaliy tajribalarni tahlil qilish;

Jizzax viloyatida muzeylar faoliyatini, ularning shakllanishi, muammo va yechimlar holatida ochib berish;

Jizzax viloyatida madaniy meros obyektlarini ta'mirlash va tiklanishi tarixini arxiv materiallari asosida yoritib berish;

Jizzax viloyatida madaniy meros obyektlaridan turizmga foydalanishni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Jizzax viloyatidagi madaniy meros obyektlari va muzeylari olingan.

Tadqiqotning predmetini qilib, madaniy meros obyektlarini muzeylashtirish, ta'mirlash va saqlash, muzeylar faoliyati va madaniy turizmni rivojlanish jarayonlari tashkil etadi

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik, obyektivlik, taqqoslash, statistik tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Respublika moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari Milliy ro'yxati Jizzax viloyatidagi (427 ta, 2019-y.) Hammom (Jizzax sh.), To'rtko'lto'batepa, Toshbuloq (Zomin t.), Ko'kgumbaztepa, Bolg'alitepa, Katta

Ж.З. Фарғона водийсидаги тарихий-маданий дггорликларни музейлаштириш (XIX-XXI асрлар).Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2021. 54 б.; Орифжонова Г. Р. XIX – XX аср бошларига оид Ўзбекистон этномаданий меросини сақлаш, тадқиқ этиш ва намойиш этишининг тарихий-маданий жиҳатлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2021. 54 б.; Файзиёва В.С. Ўзбекистон давлат санъат музейи: тарихи, ривож ва истиқболи (XX–XXI асрлар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2021. 52 б.;

Mulkushtepa, Kichik Mulkushtepa, Zargartepa, Jalmantepa (G'allaorol t.) arxeologiya yodgorliklarini kiritish(436 ta, 2022-y.) hisobiga kengaytirilgan;

Jizzax viloyatidagi yodgorliklar davriy jihatdan mil. avv. XII asrlardan to XX asr boshlarigacha arxeologik, IX asrdan XX asrgacha arxitektura, XX asr oxirlaridan va 2017-yilgacha bo'lgan monumental san'at yodgorliklariga ajralishi, ulardan 33 tasida «Nomsiztepa» bo'lib, tizimli va statsionar arxeologik tadqiqotlar to'liq o'tkazilmaganligi ochib berilgan;

Jizzax viloyatidagi muzeylar idoraviy bo'ysinuvi tadrijida Madaniyat va sport ishlari vazirligida(1986-y.) - «Xalq va jamoat», «O'lkashunoslik», «Memorial», «Shon-shuhrat»; Xalq ta'limi vazirligida (1998-y.) - «Maktab tarixi»; Prokuratura tizimida (2006-y.) - «Prokuratura tarixi»; Ichki ishlar vazirligi tizimida (2007-y.) «Ichki ishlar boshqarmasi»; Oliy ta'lim vazirligi tuzilmasiga (2018-y.) - «Qatag'on qurbonlari xotirasi»; Turizm va madaniy meros vazirligi (2022-y.) - «O'lkashunoslik», «Davlat», «Xalq ijodiyoti»; Madaniy meros agentligida (2023-y.) -«Tarix va madaniyat» «Kosmonavtika» muzeyi kabi sohalarga yo'naltirilganligi hamda ularning soni 17 taga yetganligi dalillangan;

Jizzax viloyatidagi arxeologiya yodgorliklarini *tepalik* (Jizzax shahrida Qaliyatepa), *qo'rg'on* (Zomin tumanida Q'org'on), *qoyatosh rasmlari* (Sh.Rashidov tumanidagi «Oq oltin» MFY, Sayhonsoy qishlog'i yaqinidagi Sayhontosh rasmlari) kabi yo'nalishlarda muzeylashtirish turizm marshrutlarini diversifikatsiya qilishi hamda sayyohlik jozibadorligini kengaytirishning muhim omili ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalaridan Jizzax viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining zamonaviy ekspozitsiyasini Jizzax vohasining o'tmishi va bugungi kuni haqida qimmatli ma'lumotlar bilan boyitishda foydalanilgan.

Jizzax viloyatidagi madaniy meros obyektlari va muzeylariga bag'ishlangan barcha ilmiy adabiyotlar va birlamchi manbalarning o'ziga xos, umumiy va xususiy jihatlari aniqlangan;

Oliy o'quv yurti talabalari hamda Jizzax viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi tinglovchilari uchun tarix va muzeyshunoslik fanlari doirasida ma'ruzalar tayyorlangan.

tadqiqot natijalari Jizzax viloyatidagi madaniy meros obyektlari va muzeylari bo'yicha to'planayotgan manbashunoslik bazasini kengaytirgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda tarix fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo'llanilgani, katta hajmdagi arxiv hujjatlari, adabiyotlardan foydalanilgani, ularning aksariyati birlamchi manbalarga asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Jizzax viloyatidagi madaniy meros obyektlari va muzeylari tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik usullar asosida, obyektivlik tamoyiliga tayanib tashkiliy va tizimli tahlil asosida yoritilgani bois ulardan

mazkur muammoga oid nazariy xulosalarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Jizzax viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ekspoziyalarini tarixiy faktlar bilan boyitish, shuningdek, tarixiy-madaniy yodgorliklarni muzeylashtirish, ta'mirlash va saqlash, muzeylar faoliyati va turizm sohasida amalga oshirilayotgan maqsadli davlat dasturlarining bajarilishda, O'zbekiston tarixidan darslik hamda o'quv qo'llanmalar yaratishda, turizmning roli to'g'risida targ'ib qiluvchi teleko'rsatuvlar va kinofilmlar vositasi orqali keng ommaga yetkazishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jizzax viloyatidagi madaniy meros obyektlari va muzeylari bo'yicha tadqiqot olib borish davomida olingan ilmiy natijalar asosida:

Jizzax viloyatidagi arxeologik qazuv ishlari tarixini o'rganish orqali moddiy madaniy merosning Jizzax shahridagi – Hammom, Zomin tumanidagi - To'rtko'lto'batepa, Toshbuloq, G'allaorol tumanidagi Ko'kgumbaztepa, Bolg'alitepa, Katta Mulkushtepa, Kichik Mulkushtepa, Zartepa, Jalmantepa yodgorliklari bo'yicha materiallardan Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi ekspozitsiya bo'limlari faoliyatini shakllantirishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Madaniy Meros agentligining 2023-yil 20-iyundagi 04-06/2045-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning joriy qilinishi tarixiy-madaniy yodgorliklar tarixini o'rganishga, yosh avlodni madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalashga yordam bermogda;

Jizzax viloyatidagi yodgorliklar davriy jihatdan mil. avv. XII asrlardan to XX asr boshlarigacha arxeologik, IX asrdan XX asrgacha arxitektura, XX asr oxirlaridan va 2017-yilgacha bo'lgan monumental san'at yodgorliklariga oid manbalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi «O'zbekiston tarixi» telekanali «Tadqimot» ko'rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda keng foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, «O'zbekiston» teleradiokanali davlat muassasasining 2023-yil 21-iyuldagi 02-30-1119-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natija madaniy yodgorliklarni asrab avaylash, shunidek muzeyga tashrif buyuruvchilarning boy tariximizga bo'lgan qiziqishning ortishiga xizmat qilmoqda.

Jizzax viloyatidagi muzeylar idoraviy bo'ysinuvi tadrijida Madaniyat va sport ishlari vazirligida (1986-y.) «Xalq va jamoat», «O'lkashunoslik», «Memorial», «Shon-shuhrat»; Xalq ta'limi vazirligida (1998-y.) «Maktab tarixi»; Prokuratura tizimida (2006-y.) «Prokuratura tarixi»; Ichki ishlar vazirligi tizimida (2007-y.) «Ichki ishlar boshqarmasi»; Oliy ta'lim vazirligi tuzilmasiga (2018-y.) «Qatag'on qurbonlari xotirasi»; Turizm va madaniy meros vazirligi (2022-y.), «O'lkashunoslik», «Davlat», «Xalq ijodiyoti»; Madaniy meros agentligida (2023-y.) «Tarix va madaniyat» «Kosmonavtika» muzeyi kabi sohalarga yo'naltirilganligi hamda ularning soni 17 taga yetganligiga oid ma'lumotlardan Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi faoliyatini takomillashtirishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Madaniy Meros agentligining 2023-yil 20-iyundagi 04-06/2045-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalar faktik materiallar

va muzey ekspozitsiyasini takomillashtirish, mazmun mohiyatini ilmiy boyitishga xizmat qilgan;

Jizzax viloyatidagi arxeologiya yodgorliklarini *tepalik* (Jizzax shahrida Qaliyatepa), *qo'rg'on* (Zomin tumanida Q'org'on), *qoyatosh rasmlari* (Sh.Rashidov tumanidagi «Oq oltin» MFY, Sayhonsoy qishlog'i yaqinidagi Sayhontosh rasmlari) kabi yo'nalishlarda muzeylashtirish turizm marshrutlarini diversifikatsiya qilishi hamda sayyohlik jozibadorligini kengaytirish bo'yicha materiallardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi «O'zbekiston tarixi» telekanali «Tadqimot» ko'rsatuvi ssenariyalarini tayyorlashda keng foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, «O'zbekiston» teleradiokanali davlat muassasasining 2023-yil 21-iyuldagi 02-30-1119-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalar Jizzax viloyatidagi madaniy meros obyektlari bo'yicha bilim va fikrlarni kengaytirishda xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta ilmiy anjuman va seminarlarda, shu jumladan 3 ta xalqaro konferensiya va 9 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 144 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslab berilgan, o'rganilish darajasi tavsiflangan, ishning maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarning amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Jizzax viloyatida tarixiy-madaniy yodgorliklarning o'rganilishi**» nomli birinchi bobida XX asrning 50-80-yillarida hamda Mustaqillik yillarida Jizzax viloyati tarixiy-madaniy yodgorliklarining o'rganilishi tarixi tahlil qilingan.

O'zbekistonning markazida joylashgan Jizzax viloyati o'zining tarixi, tabiati va mehmondo'stligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Buni Jizzaxga berilgan e'tiroflardan ham anglab olishimiz qiyin emas. Ular qisqacha keltirib o'tish maqsadga muvofiq deb hisobladik. Jumladan, Jizzax qadimiy va shonli o'tmishga ega¹². Jizzax - tabarruk ajdodlarimiz qadami yetgan muqaddas maskan¹³. Jizzax -

¹² Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий Истиклол, иктисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. Тошкент: «Ўзбекистон», 1996. –Б.63.

ko'pni ko'rgan, hayot sinovlarida toblangan, ne- ne ulug' insonlar, kuragi yerga tegmagan pahlavonlar yurtidir¹⁴. Jizzax vohasida kamol topgan mashhur huquqshunos alloma Muhammad ibn Mahmud Ustrushoniyning XIII asrda yaratilgan «Jome' ahkom as-sig'or» («Bola huquqlari kodeksi») noyob asari jahon tarixidagi bolalar huquqi bo'yicha dastlabki mukammal huquqiy manbadir¹⁵. Umuman olganda Jizzax haqida ko'plab e'tiroflarni keltirib o'tishimiz mumkin.

Jizzax viloyatidagi tarixiy-madaniy yodgorliklarining o'rganilishi tarixi sohada amalga oshirilayotgan ishlarning mohiyatini yanada keng tushunishga imkon berdi. Bu Jizzax madaniy vohasi tarixiy manbalarda e'tirof etilganligi tarixiy-madaniy yodgorliklarining o'rganilishi natijasidir¹⁶. Biz o'rganayotgan Jizzax viloyati O'rta Osiyoning madaniy vohalaridan biri bo'lib, u yerda yashash va dehqonchilik qadim zamonlardan boshlangan. Qadimgi davrlarda butun hudud qadimgi davlatning bir qismi bo'lgan¹⁷. Demak, o'troq hayot va dehqonchilik boshlangan madaniy vohalaridan biridir. Ustrushona haqidagi yozma manbalarda juda ko'p qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan¹⁸. Arxeologik jihatdan bu hudud juda kam o'rganilgan. Jizzax vohasida tizimli va statsionar arxeologik tadqiqotlar to'liq o'tkazilmagan.

Umuman olganda XX asrning 50-80-yillarda Jizzax vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar tarixi Jizzaxning qadim tarixi jumladan, aholi manzillari, urf-odati, san'ati, dini va aholisi mashg'uloti haqida ma'lumotlar berdi.

Jizzax vohasida tizimli va statsionar arxeologik tadqiqotlar to'liq o'tkazilmagan. Ilmiy tadqiqot bo'yicha olimlarning loyihalari qo'llab-quvvatlanib, mahalliy hokimiyat tashkilotlarining hamkorligida faoliyat olib borilsa salmoqli natijalar qo'lga kiritiladi va hayotga tadbiiq etiladi.

Mustaqillik yillarida Jizzax viloyati tarixiy-madaniy yodgorliklarining o'rganilishida Qaliyatepa alohida o'rin egallaganligini ko'rishimiz mumkin. Bu manzil mustaqillik yillarigacha va undan keyin ham boshqa yodgorliklarga qaraganda kengroq o'rganilganligini alohida ta'kidlash lozim.

Jizzax viloyatida amalga oshirilgan tadqiqotlar Madaniy meros agentligi arxiv materiallari asosida tahlil qilindi. Unda 1991-2022-yillarda Jizzax viloyatida 40 dan ortiq arxeologiya tadqiqotlari olib borilganligi ma'lum bo'ldi. Arxeologiya tadqiqotlar Gritsina A.A., Mamurov O., Maqsudov F., Murodaliyev R.H., Pardayev M.X., Sverchkov L.M., Toshboyev F.E. va Xolmatov A.N. kabi olimlar

¹³ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт — пировард мақсадимиз. 8-жилд. Тошкент: «Ўзбекистон», 2000. –Б.110.

¹⁴ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.1-жилд. - Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. –Б.414.

¹⁵ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: «O'zbekiston» nashriyoti, 2022. –B.59.

¹⁶ Ўз Р ФА Академик Я.Фулумов номли Археология институти архиви. 6-фонд, 1-рўйхат, 26-йиғмажилд. 2-14-варақлар.

¹⁷ Ўз Р ФА Академик Я.Фулумов номли Археология институти архиви. 6-фонд, 1-рўйхат, 7-йиғмажилд. 2-20-варақлар.

¹⁸ Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена, т.1, М-Л., 1950, -С.9.

tomonidan o'tkazilgan¹⁹.

2014-yil 5-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Vahkamasining 335-son Qaroriga²⁰ (1-jadval) ko'ra Tarixiy, badiiy yoki madaniy qimmatligi tufayli garov va ipoteka qo'llanilishi mumkin bo'lmagan obyektlar ro'yxatiga Jizzax viloyatidan ya'ni, Jizzax shahridan 49 ta, Zomin tumanidan 77 ta, Sh.Rashidov tumanidan 2 ta, Forish tumanidan 14 ta, Zarbdor tumanidan 12 ta, G'allaorol tumanidan 42 ta, Yangiobod tumanidan 19 ta, Baxmal tumanidan 59 ta arxeologik obyektlar kiritilgan. Arxeologik obyektlar xronologik jihatdan mil.avv. 2500 yillardan (Sayhontosh (Takalitosh) rasmlari) to XX asr boshlarigacha bo'lgan davrni qamrab olgan.

2019-yilda tasdiqlangan Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatida²¹ Jizzax viloyati bo'yicha 427 ta madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari ro'yxatga kiritilgan.

Madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari tahlili quyidagi holatni ko'rsatdi. Bu yerda arxeologiya yodgorliklari soni 269 tani tashkil etgan. Demak, Jizzax shahrida - 9 ta; Sh.Rashidov tumanida - 40 ta; Zomin tumanida - 73 ta; Forish tumanida - 15 ta; Zarbdor tumanida - 11 ta; G'allaorol tumanida - 47 ta; Yangiobod tumanida - 18 ta; Baxmal tumanida - 55 ta; Mirzacho'l tumanida - 1 tani tashkil etgan.

Arxitektura yodgorliklari soni: Jizzax shahrida -13 ta; Sh.Rashidov tumanida - 4 ta; Zomin tumanida -33 ta; Forish tumanida -15 ta; Zarbdor tumanida -3 ta; G'allaorol tumanida -9 ta; Yangiobod tumanida -11 ta; Baxmal tumanida-11 tani tashkil etgan.

Monumental san'at yodgorliklari soni: Jizzax shahrida - 9 ta; Sh.Rashidov tumanida - 7 ta; Zomin tumanida -3 ta; Forish tumanida - 4 ta; Zarbdor tumanida - 8 ta; G'allaorol tumanida -14 ta; Yangiobod tumanida - 1 ta; Baxmal tumanida - 2 ta; Mirzacho'l tumanida - 4 ta; Arnasoy tumanida - 1 ta; Do'stlik tumanida - 3 ta; Paxtakor tumanida - 3 tani tashkil etgan.

Madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari arxeologiya yodgorliklari mil. avv. XII asrlardan to XX asr boshlarigacha, arxitektura yodgorliklari IX asrdan va XX asrlargacha, monumental san'at yodgorliklari XX asr oxirlaridan va 2017 yilgacha bo'lgan davrga oidligi hamda Jizzax viloyati bo'yicha 33 ta Nomsiztepa nomi bilan ro'yxatga olingan madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari mavjudligi aniqlandi.

Jizzax viloyatidagi arxeologik yodgorliklarining 2014-yilgi 273 ta ro'yxati berilgan bo'lsa, 2019-yilgi 269 ta ekanligi va ular o'rtasidagi farq esa bu ro'yxatda Arxitektura yodgorliklari sifatida qayd etilganligi bilan tasniflangan.

¹⁹ Madaniy meros agentligi joriy arxivi (1991-2022 yillar da Jizzaxda olib borilgan arxeologiya tadqiqotlar). -B.1.

²⁰ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Ваҳкамасининг 2014 йил 5 декабрдаги «Тарихий, бадий ёки маданий қимматлилиги туфайли гаров ва ипотека қўлланилиши мумкин бўлмаган объектлар рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида» ги 335-сон Қарори

²¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 4 октябрдаги «Моддий маданий мероснинг кўчмас мулк объектлари миллий рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида» ги 846-сон Қарори

2022-yilda Jizzax viloyat hududida joylashgan moddiy madaniy meros obyektlari va madaniy boyliklarni aniqlash, hisobga olish, muhofaza qilish, asrash va ulardan oqilona foydalanish, muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining but saqlanishi holati to'g'risida quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin²².

Jizzax viloyatidagi jami 427 ta madaniy meros obyektlarining kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish uchun kerakli mablag' kadastrlar palatasi viloyat boshqarmasiga o'tkazib berilgan. Hozirda obyektlarning 368 ta obyektning kadastr hujjatlarini rasmiylashtirilgan, obyekt muhofaza tegralari belgilangan, qolgan 59 tasining kadastr ishlarini rasmiylashtirish ishlari davom etmoqda, 24 ta obyektga homiylik mablag'i xisobidan muhofaza belgilari o'rnatildi, qolgan 403 tasiga o'rnatish vazifasi shahar va tuman hokimliklari zimmasiga yuklatildi.

Viloyatdagi madaniy meros obyektlaridan 2 tasiga WI-FI va QR- kodlar, 4 tasiga audiogidlar va 2 tasiga sayyohlar va aholining kirishini elektron hisobga olish uchun turniket o'rnatildi. Boshqarma tomonidan arxeologik obyektlarning saqlanishini o'rganish jarayonida, Jizzax shahar, Zomin, Forish, G'allaorol tumanlarida 50 ga yaqin noqonuniy va o'zboshimchalik bilan arxeologik hududlarda qurilish ishlarini bajargan fuqarolarga nisbatan ogohlantirish xatlari berilib, noqonuniy qurilishlarning hujjatlari jamlanib borilmoqda. Bundan tashqari yil davomida viloyatda mavjud barcha arxeologik obyektlar hududidagi noqonuniy qurilish egalariga 35 ga yaqin ogohlantirishlar berilgan.

Alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy va jahon madaniy merosi obyektlari jumlasiga kiritilgan hududlarda shaharsozlik va boshqa xo'jalik faoliyatlarini ularning tarixiy-madaniy muhiti, tabiiy landshafti va o'ziga xosligini saqlab qolgan holda olib borilishini muvofiqlashtirish yuzasidan «Xonbandi» yodgorligi, «Kultepa shahristoni», «Miq qal'asi», «To'rtko'l tepa» arxeologiya yodgorliklarini YUNESKO ning jahon ro'yxatiga kiritish bo'yicha ma'lumotlar Madaniy meros departamentiga taqdim etilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **«Jizzax viloyatida madaniy meros obyektlarini muzeylashtirish va muzeylar faoliyati»** deb nomlangan bo'lib, unda Madaniy meros obyektlarini muzeylashtirishning me'yoriy-huquqiy asoslari va Jizzax viloyatida muzeylar faoliyatining shakllanishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Arxeologiya yodgorliklarini muzeylashtirish tarixiy-madaniy merosni muzeylashtirish sohasidagi eng murakkab muammolardan biridir. Bugungi kunda mamlakatimizda muzeylashtirilgan arxeologiya yodgorliklari soni juda pastligicha qolmoqda, shu bilan birga muzey makonining bunday shakllariga bo'lgan ehtiyoj albatta mavjud.

Mavzuning dolzarbligi Jizzax viloyatidagi hozirgi vaziyat bilan belgilanadi, bu yerda ko'rib chiqilayotgan arxeologik yodgorliklarning vayron bo'lishi va vayron bo'lishining progressiv ko'lami umummilliy muammoga aylanadi.

²² Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2022-yil 3-fevraldagi «Вилоят худудида жойлашган моддий маданий мерос объектлари ва маданий бойликларни аниқлаш, ҳисобга олиш, муҳофаза қилиш, асраш ва улардан оқилона фойдаланиш, музей ашёлари ва музей коллекцияларининг бут сақланиши ҳолати тўғрисида»ги VI-32-45-3-0-К/22-сонли Қарори

O'zbekistonning arxeologik obyektlari va ularni saqlab qolish masalalari hozirgi kunda juda dolzarbdir. Tahlillar natijasida davlat himoyasiga olingan obyektlarning 25 foizidagina muhofaza belgilari-yorliqlar mavjud²³. Bundan tashqari aksariyat madaniy meroslarning kadastr hujjatlari yo'q, chegaralari belgilanmagan²⁴. XXI asrda me'moriy merosni muhofaza qilish, shaharning tarixiy muhitini asrab-avaylash va undan turizmda samarali foydalanish amaliyoti istiqbolli yo'nalishlardan biridir. Tarixiy shaharni madaniy hodisa sifatida aniqlash, aksiologik yondashuv asosida yagona ekspozitsiyani tashkil etuvchi yodgorlik va inshootlarning me'moriy-badiiy o'ziga xosligini muzeylashtirish katta ahamiyatga ega. Arxitektorlar, tarixchilar, arxeologlar, o'lkashunoslar, san'atshunoslar, etnograflar, sotsiologlar bilan hamkorlikda shahar hayotining tarixiy-madaniy va ijtimoiy-maishiy jihatlarini muzeylashtirishga e'tibor qaratish hozirda nihoyatda muhimdir²⁵.

Mustaqillik yillarida ham arxeologiya yodgorliklarini muhofaza qilish, restavratsiya qilish, ulardan foydalanish kabi masalalarni bartaraf etish bo'yicha huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilinmoqda. Ularda asosan sohani shakllantirish va takomillashtirish bo'yicha vazifalar belgilangan. Shu bilan birga O'zbekistondagi jumladan, Jizzax viloyatining madaniy meros obyektlarini muzeylashtirish vazifalari belgilangan huquqiy-me'yoriy hujjatlar mazmuniga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jumladan, Jizzax viloyatidagi Qaliyatepa yodgorligini konservatsiyalash va muzeylashtirish²⁶; Turizm salohiyati yuqori bo'lgan madaniy meros obyektlari ro'yxatiga Jizzax viloyatidan «Sa'ad ibn Abu Vaqqos» majmuasi (G'allaorol tumani, «Avliyo» QFY) va «Xo'jamushkent» majmuasini (Yangiobod tumani, Xo'jamushkent qishlog'i) kiritish²⁷; Ziyorat turizmi marshrutlarida foydalaniladigan madaniy meros obyektlarining 2021 - 2025-yillarda ustuvor ravishda restavratsiya qilish dasturiga Jizzax viloyatidan 63 ta obyektни kiritish; Jizzax viloyatidan umumjahon merosi ro'yxati bo'yicha Forish tumanidagi Xonbandi suv ombori va Zomin tog'lari - tabiiy meros sifatida ro'yxatga kiritish vazifalari belgilangan²⁸. 2022-yilda ham «2023 - 2026-yillarda muzeylashtiriladigan arxeologiya yodgorliklarining manzilli rejasi»ga binoan Jizzax viloyati Jizzax shahridagi «Qaliyatepa» arxeologik yodgorligini yana muzeylashtirish belgilandi²⁹.

²³ Курязова Д. Ўзбекистондаги археологик объектлар ва уларни музейлаштириш йўли билан сақлаб қолиш масалалари. Ўтмишга назар. 2-қисм/Махсус сон. 2020. -Б.292-298.

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrda «Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-4068-son Qarori

²⁵ Mukhamedova M.S. The role of Museuming the historical cities and ethnographic neighborhoods of Uzbekistan in cultural tourism. International Journal of Pedagogics (ISSN – 2771-2281). VOLUME 02 ISSUE 09. Pages: 47-52

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrda «Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-4068-son Qarori

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevralda «Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi 100-son qarori

²⁸ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 3 мартдаги «Моддий маданий мерос объектлари ва ЮНЕСКОнинг умумжаҳон мероси рўйхатига киритилган ҳудудлар муҳофазасини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 119-сон Қарори

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-mayda «Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-261-son qarori

Muzeylashtirish muammosiga to'xtaladigan bo'lsak, birinchi navbatda ishlash kerak bo'lgan obyektlarning turlarini aniqlash kerak. Zamonaviy tadqiqotchilar quyidagi turlarni ajratib ko'rsatishadi:

Arxeologik majmua - arxeologik yodgorliklar majmui (qo'shni aholi punktlari, qabristonlar va boshqalar bilan mustahkamlangan turar-joy); arxeologik yodgorliklar (tepaliklar, aholi punktlari, qabristonlar va boshqalar); arxeologik joylar (alohida inshootlar - binolar, ko'priklar, qal'alar, ariqlar);

Har qanday obyektning muzeylashtirish bir necha bosqichda amalga oshiriladi: Aniqlash; o'rganish; restavratsiya (o'rganishdan keyin zarur bo'lgan konservatsiya, restavratsiya, kamroq rekonstruksiya ishlarini olib borish); ekspozitsiya maydonini tashkil etish (ekspozitsiyalarni yaratish, turistik marshrutlar va dasturlarni tashkil etish, zarur infratuzilmani yaratish va boshqalar)³⁰.

Umuman olganda Jizzax viloyatida madaniy meros obyektlarini muzeylashtirishda ilmiy jihatdan asoslangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Arxeologiya yodgorliklari nomlarini vazifasi bo'yicha (tepa – Jizzax shahrida Qaliyatepa, qo'rg'on - Zomin tumanida Q'org'on, qoyatosh rasmlari - Sh.Rashidov tumanidagi «Oq oltin» MFY, Sayhonsoy qishlog'i yaqinidagi Sayhontosh rasmlarini (Takali tosh rasmlari) muzeylashtirish Jizzax viloyati uchun turizm jozibasini yanada oshirgan bo'ladi.

Yurtimizda «2020-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida muzeylar faoliyatini takomillashtirish dasturi» qabul qilindi³¹. Unda O'zbekistondagi barcha muzeylar kabi Jizzax viloyatidagi muzeylar faoliyatini ham takomillashtirish belgilab berilgan. Jizzax viloyatida muzeylar faoliyati XX asrning 80-yillarida shakllana boshladi. Hozirgi kunda Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi viloyatdagi barcha muzeylar uchun bosh muvofiqlashtiruvchi muassasa hisoblanadi. Demak, hozirgi Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi tarixi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligining 1986-yil 10-sentabrdagi №465-sonli qaroriga asosan, Jizzax viloyat «O'lkashunoslik muzeyi» sifatida tashkil topgan. Muzey Jizzax shahar sobiq «Alisher Navoiy» nomli jamoa xo'jaligidagi «Qo'shchinor» jome' masjid binosida 65 ta ekspонат bilan o'z faoliyatini boshlagan. O'sha vaqtda muzey 3 ta bo'limdan iborat bo'lgan: Ular tarix, tabiat va san'at bo'limlaridan iborat bo'lgan³².

Ma'lumki, yurtimizda 50-yillarda o'lkashunoslik muzeylarining tarmog'i kengaydi. Joylarda o'lkashunoslik muzeylari tashkil etila boshlagan.

60-yillarning ikkinchi yarmida respublikada 60 ta, umuman Ittifoq bo'yicha esa 3 mingga yaqin xalq muzeylari ishlab turgan. Xalq muzeylarini tashkil etishda Fanlar akademiyasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi (sobiq M. T. Oybek nomidagi O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi) tajribasi Jizzax viloyatida ikki marta

³⁰ Каулен М. Е., Сундиева А. А., Коссова И. М. Музейное дело России – 3-е издание (коллективная монография). // М.: Издательство ВК, 2010. – 403 с.

³¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-dekabrda «2020-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida muzeylar faoliyatini takomillashtirish dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi 1019-son qarori

³² Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi joriy arxivi (Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi haqida ma'lumotnoma, 2022). -B. 1-14.

Sotsialistik Mehnat Qahramoni Hamroqul Nosirov nomidagi mehnat shon-shuhrati muzeyining tashkil topishida ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Davlat muzeylarining xalq muzeylariga amaliy yordami zarurligi matbuot sahifalarida ham ta'kidlab o'tilgan³³.

Tahlillarga ko'ra, Jizzax viloyatidagi muzeylar faoliyati tadriji quyidagidek bo'lgan va islohatlar natijasida takomillashtirilgan.

Sharof Rashidov yodgorlik muzeyi (1992-yil 22-fevral), Hamid Olimjon va Zulfiya muzeyi (1992-yil 28-avgust), Hamraql Nosirov «Shon-shuhrat» muzeyi (1994-yil 21-iyun), Haydarbek Abdujabborov «Shon-shuhrat» muzeyi (1991-yil 14-fevral), G'allarol tuman «Shon-shuhrat» muzeyi (2003-yil 27-fevral), Zomin tuman tarixi muzeyi (1993-yil 3-dekabr), Baxmal «Xalq ijodiyoti va tarixi» bo'limi (2003-yil 27-fevral), Jizzax viloyat prokuraturasi tarixi muzeyi (2006-yil 11-sentabr), Zomin tuman Pshag'ar O'lkashunoslik muzeyi (2014-yil 3-iyul), Jizzax shahar 10- umumta'lim Maktab tarixi muzeyi (1998-yil), Jizzax viloyat Yangiobod tumani 2 umumta'lim maktab tarixi muzeyi (2014-yil 23-iyun), Jizzax viloyat Ichki ishlar boshqarmasi muzeyi (2007-yil 21-avgust)³⁴, JDPU tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi (2018-yil 31-avgust), Forish tuman «O'lkashunoslik» filiali (2020-yil 21-noyabr), Mirzacho'l tuman «O'lkashunoslik» filiali (2020-yil 21-noyabr) kabilardir.

2017-yilda Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanida joylashgan Jizzax viloyat o'lkashunoslik muzeyi Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi sifatida qayta tashkil etildi³⁵. Unga ko'ra Viloyat o'lkashunoslik muzeyining Xaydarbek Abdujabborov nomidagi «Shon-shuhrat» muzeyi (Sh. Rashidov tumani), Hamraql Nosirov yodgorlik muzeyi (Sh.Rashidov tumani), «Xalq ijodiyoti va tarixi» muzeyi (Baxmal tumani) va «Shon-Shuhrat» muzeyi (G'allaorol tumani) tugatilib, muzeylarning muzey ashyolari, kolleksiyalari, moddiy-texnika bazasi Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyiga berilgan.

Hozirda muzeyda 5 ta filial: Sh.Rashidov yodgorlik filiali, H.Olimjon va Zulfiya filiali, Zomin tumani tarix filiali, Forish tumani O'lkashunoslik filiali, Mirzacho'l tumani O'lkashunoslik filialidan iborat. Muzey va uning filiallarida Ajdodlar merosi, Arxeologiya, Jizzax qo'zg'oloni, Sh.Rashidov hayoti va faoliyati, H.Olimjon va Zulfiya hayoti va ijodi, Zomin, Forish, Mirzacho'l tumanlari tarixi ekspozitsiyalardan iborat³⁶. Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyida umumiy eksponatlar soni- 27175 ta. Asosiy fond- 18373 ta. Yordamchi fond- 8802 ta. Ko'rgazmada - 2206 ta eksponat mavjud.

³³ Н. Содиқова. Маданий ёдгорликлар хазинаси. –Т.: «Фан»,1981. –271 б. –Б.249-250.

³⁴ Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi joriy arxivi (Jizzax viloyatida mavjud bo'lgan muzeylar tuzilmasida ma'lumot, 2014).

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda «2017 - 2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi 975-son qarori

³⁶ Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi joriy arxivi (Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi haqida ma'lumotnoma, 2022). -B. 1-14.

Bundan tashqari Jizzax davlat pedagogika instituti tuzilmasida 2018-yil 31-avgust kuni Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi tashkil qilindi³⁷. Muzey viloyat Ma'naviyat va ma'rifat markazi binosida joylashgan, umumiy maydoni 192 kv.m. Muzey ekspozitsiyasi mavzuli reja va 3D loyihasi asosida tashkil etilgan. Muzeyning ilmiy-tadqiqot ishlarining asosiy mavzusi Jizzax viloyatidan qatag'on qilingan shaxslarni aniqlash, ularning taqdirini yoritish bo'lib, hozirda ushbu mavzu bo'yicha keng qamrovli ish olib borilmoqda.

Jizzax viloyatida ham vazirlik va idoralarga qarashli muzeylar ham faoliyat ko'rsatib kelayotganligi diqqatga sazovardir. Jizzax viloyati ichki ishlar boshqarmasi tarixiy muzeyida shular jumlasidandir³⁸. Jizzaxda mahalliy aholi tashabbusi va sa'y harakati orqali hashar yo'li bilan qurilgan o'lka tarixi haqida hikoya qiluvchi muzeylar ham bor ekan³⁹. Masalan, Zomin tumanidagi nomi turli afsona va rivoyatlar bilan bog'liq Pishag'ar qishlog'idagi muzeydir. Yillar davomida Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi faoliyatini yanada takomillashtirish uchun muzey oldida ham yechimini kutib turgan bir qancha masalalar jamlanib qolgan⁴⁰.

Muzeyga doir quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratishimiz lozim.

Jumladan, muzeyga ilmiy darajali xodimlar faoliyat yuritmaydi, lekin taklif qilinmoqda. Ilmiy darajali xodimlar oylik maoshi yuqori bo'lishini hohlashadi;

Muzeyning ekspozitsiyasi joylashgan maydon 64,0 kv.m, ekspozitsiyaga 2990 dona eksponat joylashtirilgan. Bu muzey fondining 11 foizini tashkil etadi;

Eksponatlarni keng va ko'p namoyish qilishga ekspozitsiya zallarining torligi va ekspozitsiya jihozlarning yetishmasligi to'sqinlik qiladi.

Muzeyni viloyatning markaziy muzeyi sifatida oladigan bo'lsak, muzey tuman hududida joylashganligi sababli muzeyga tashrifchilarning kelib-ketishi uchun noqulaylik tug'diradi.

Tashrifchilar sonini ko'paytirish, ularga qulayliklar yaratish maqsadida muzey binosini shahar markaziga ko'chirish taklifi mavjud.

Hozir muzey oldida:

Muzeylarni aholiga yaqinlashtirish maqsadida viloyatning chekka tumanlariga ko'chma ko'rgazmalar tashkil etish uchun muzeyda avtoullov mavjud emasligi;

Muzey fondida zamonaviy fond jihozlari hamda isitish-sovutish sistemasi mavjud emasligini alohida ta'kidlashimiz lozim.

Bu kabi masalalar albatta yurtimizda muzeylar faoliyatini yanada takomillashtirish doirasida bosqichma-bosqich bartaraf etilishi muzeyning kelgusidagi faoliyatini yanada takomillashtirish uchun muhim omil hisoblanadi.

³⁷ JDPU tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi Joriy arxivi (2022-yil hisobotlari).

³⁸ <https://jizzax.uz/3001-zhizzah-viloyati-ichki-ishlar-boshqarmasi-tarixiy-muzeyida-ancha-eksponat-salanmoda.html/06-noyabr-2019-yil>

³⁹ <https://xs.uz/uz/post/zhizzakh-pishagar-qishlogi-afsona-va-haqiqatlar/09-Sentyabr-2019>.

⁴⁰ Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyidan «Savolnoma» bo'yicha olingan ma'lumotlar asosida tayyorlangan (2023-yil, may).

